



## **CONCEPTS OF PILGRIMAGE PLACES AND SOME CONSIDERATIONS ON PILGRIMAGE CULTURE**

**M. A. Abduqodirov**

*Master's student*

*University of Exact and Social Sciences  
Tashkent, Uzbekistan*

---

### **ABOUT ARTICLE**

**Key words:** pilgrimage, spiritual silence, companions, Kultegin, Bilga-Khagan, object of pilgrimage, Islamic religion, superstition, Ancient Turan, Burayda ibn Husayyib

**Received:** 03.12.24

**Accepted:** 05.12.24

**Published:** 07.12.24

**Abstract:** This article contains the concept of pilgrimage and its explanation, the question of the role of pilgrimage in the unique traditions of our people, ways of pilgrimage, reasons why people want to visit, historical formation of pilgrimage and its types.

## **ZIYORAT MASKANLARIGA OID TUSHUNCHALAR VA ZIYORAT MADANIYATIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR**

**M. A. Abduqodirov**

*Magistratura talabasi*

*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti  
Toshkent, O'zbekiston*

---

### **MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** ziyorat, ruhiy sokinlik, sahoba, Qultegin, Bilga xoqon, ziyorat obyekti, islom dini, xurofot, Qadimgi Turon, Burayda ibn Husayib.

**Annotatsiya:** Ushbu maqlada ziyorat tushunchasi va uning izohi, xalqimizning o'ziga xos urf-odatlarida ziyoratning roli masalasi, ziyorat odoblari, kishilarda ziyorat qilish istagi paydo bo'lishining sabablari, ziyoratning tarixan shakllanishi, uning turlari haqidagi mulohazalar o'rinn olgan.

## **ПОНЯТИЯ О МЕСТАХ ПАЛОМНИЯ И НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О КУЛЬТУРЕ ПАЛОМНИЯ**

**M. A. Абдуқодиров**

*студент магистратуры*

*Университет точных и социальных наук  
Ташкент, Узбекистан*

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** паломничество, духовное молчание, сподвижники, Культегин, Бильга-каган, объект паломничества, исламская религия, суеверие, Древний Туран, Бурайда ибн Хусайиб.

**Аннотация:** В данной статье содержится понятие паломничества и его объяснение, вопрос о роли паломничества в уникальных традициях нашего народа, способах паломничества, причинах, по которым люди хотят посетить, историческом формировании паломничества и его видах.

“Ziyorat” so‘zi lug‘atda qasd qilish, tashrif buyurish, ko‘rgani borish degan ma’nolarni anglatadi. Uning istilohiy ma’nosini ham lug‘aviy ma’nosidan ayro bo‘lmay, urfda ziyorat deganda biror joyga yoki inson huzuriga borish tushuniladi. Masalan, muqaddas joylarga, mozor hamda qabristonlarga borib, muayyan amallarni bajarib kelish. Alloh taoloning rizoligini istab musulmon birodarining holidan xabar olish. Birinchi ma’no borasida quyidagi hadislar rivoyat qilingan: Burayda ibn Husayb (roziyallohu anhu) dan rivoyat qilinadi: “Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam): “Sizlarni qabrлarni ziyorat qilishdan qaytargan edim. Endi ularni ziyorat qilinglar”, deganlar [1, 3].

Xalqimiz azal-azaldan olim, fozil, solih insonlarning hurmatini joyiga qo‘yadi. Hatto ular vafot etgandan so‘ng ham qabrlarini obod etib, ziyoratgohga aylantiradilar. Hozirgi kunda yurtimizning barcha joylarida obod ziyoratgohlar, qadamjolarni ko‘rish mumkin. Ziyoratgohlarimizga, nafaqat yurtimiz vakillari, balki dunyo bo‘ylab sayyoqlar, ziyoratchilar tashrif buyurmoqdalar. Aksariyat kishilar u yerdan o‘zлari uchun ruhiy sokinlik topib, turli xil bid‘at-xurofotlarga yaqinlashmay ziyorat qilib ketmoqda. Lekin ayrimlar ziyorat odoblari, qonun-qoidalarini bilmaganliklari tufayli shariatga tog‘ri kelmaydigan, ishlarga ruju qo‘ymoqda. Ushbu bid‘atlar bir necha ko‘rinishlardan iborat bo‘lmoqda. Jumladan:

- qabrdagi insondan hojatini so‘rash. Bu shariatdan eng uzoq ziyorat ko‘rinishidir. Bunda o‘tganlar ruhidan madad so‘raladi, ishlarida qo‘llashi tilanadi. Shuningdek, qabrlarga qarab sajda qilish, ularni o‘pish, silash, tavof qilish ham shu navdagagi bid‘atlardandir [2, ];
- qabrdagi insonning nomi bilan Allohdan hojatini so‘rash. Bu amal ham bid‘atlar turkumiga kiradi. Chunki bunday ishlarga Alloh izn bermagan. Bu amal dinda ruxsat berilgan Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam), payg‘ambarlar (alayhimussalom), sahabai kiromlar va boshqa muqarrab bandalarni vasila qilib duo qilishga qiyoslanmaydi. Chunki ba’zilar vasilani biz omi xalqning iltijosi Allohga yetib bormaydi. Shuning uchun o‘z istak va xohishlarimizni so‘raydigan narsalarimizni ulardan so‘rashimiz kerak, deb tushunishadi. Bu esa ochiq jaholat va buyuk shaxslarni ilohiylashtirishdir;
- qabristonlarni duo qabul bo‘ladigan joylar deb hisoblash. Ya’ni masjidlarda qilingan duodan ko‘ra qabristonda, buyuk insonlar maqbarasi oldida qilingan duo afzal va tez ijobat bo‘luvchi deb hisoblash;

- qabristonlarda sham yoqish, taom pishirib yeyish, daraxtlariga latta bog‘lash, tuproqlaridan olib ketish ham kishi saqlanishi lozim bo‘lgan bid’ atlarga kiradi. Demak, ziyorat qiluvchi kishi qilgan ziyoratidan savob olishni umid etsa, yuqorida sanalgan bid’ atlardan uzoq bo‘lishi lozim [1, 4].

Avvalo, niyatni to‘g‘rilamoq: ziyoratni xolis Alloh uchun qilmoq, yordamni, najotni, yolg‘iz Allohdan tilamoq lozim. Anbiyoi izom (ulug‘ payg‘ambarlar) va avliyoi kiromning ziyoratlari, shubhasiz, foydadan xoli emas.

Ba’zi adno (mushkul) darajada qolgan bandalar Alloh taolodan hojatlarini bevosita talab etmoqqa o‘zlarida layoqat va munosabat topmagani sababli, ba’zi dunyo va oxirat maqsadlari hosil bo‘lishi uchun ularni vosita va vasila aylasalar, ular hurmatidan ushbu talabni Alloh ijobat qilib, hojatlari ravo bo‘lishi umid qilinadi. Chunonchi: “Yo Robbim! Shu zotning qurbu hurmatini dargohingga vosita va vasila ayladim, mening falon maqsudimni ravo qil!” deb duo qilishi mumkin. Chunonchi, bu “Ibodati islomiya” da aytilgan.

Tarix odamzodning yuksalishini, kamolotga intilishini aks ettiradigan o‘ziga xos xotira daftarıdir. Tarixning tarbiyaviy kuchi va murabbiylik mohiyatidan ma’lumki, o‘z tarixini bilish o‘zga xalqlar o‘tmishiga, ularning turmush tarziga, madaniyati, urf-odati, qarashlariga hurmat bilan yondashish munosabatini shakllantiradi [3, 4]. Dunyodagi mavjud taraqqiyot etgan, madaniyatli xalqlarning o‘z tili, urfodati, san’ati va adabiyoti, osori-atiqalari, an’anaviy moddiy va ma’naviy boyliklari, bebafo qadriyatları bo‘ladi. O‘z o‘rnida ta’kidlash joizki, “O‘zbek xalqi ham dunyodagi eng qadimiy madaniy xalqlardan biri sifatida mana shunday xazinaga ega. Bu bilan biz haqli ravishda faxrlansak arziyi. Buning uchun o‘scha qadimiy madaniyatni, urf-odatni bilishimiz, saqlashimiz va keyingi avlodlarga ham yetkazishimiz insoniy burchimizdi. Har bir xalq ana shu udumlar, urf-odat, o‘tmishga chuqur tomir otib kelgan o‘q ildizlari bilan jahon madaniyatiga o‘ziga xos o‘rin tutadi” [4, 5]. Qadimdan Turon zaminida muqaddas joylarni e’zozlash, ularni avaylab asrash avlodlarga nisbatan or-nomus va sharaf mezoni hisoblangan. Miloddan avvalgi V asrda yashagan grek tarixchisi Geradot o‘zining «Tarix» deb nomlangan asarida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, jangovor ko‘chmanchi Skif qabilalarini bo‘ysundirish uchun Ahamoniylar sulolasini podshohi Doroga skiflar hukmdori Idanfiris tomonidan maktub yozilgan bo‘lib, ushbu maktub: “Agar jang qilishni juda istasangiz, otalarimizning qabrlarini topib, ularni oyoq-osti qilishga urunib ko‘ringlar, jang qilamizmi, yo‘qmi, keyin bilasizlar...” deyilgan jumlalar bilan yakunlangan edi. Skiflarning bu tarzda Eron shohiga yo‘llagan javobidan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, avlodlar uchun ota-bobolarining qabri, mozorlari muqaddas sanalgan va ularni dushman tomonidan toptalishga aslo yo‘l qo‘ymaganlar. Turkiy xalqlarning VIII asrga mansub nodir yozma yodgorliklaridan biri hisoblangan “Bilga hoqon bitigi” dagi ma’lumotlaridan ma’lum bo‘ladiki, e’tiqodga ko‘ra, ziyoratgohlarni qo‘ldan berib qo‘yish, urfodatlardan ajralib, yovga taslim bo‘linganidan dalolat beradi [5, 166]. Markaziy Osiyo hududida joylashgan ziyoratgohlar bo‘ylab kezar ekanmiz, bosgan har bir qadamlarimiz ostida biz bilmagan

tarix mavjudligi his etish mumkin. Bunday paytlarda ajdodlarning tarixiy xotira xususida aytgan ma'noli hikmatli so'zлari yodimizga tushadi. Zero, ularning o'gitlari har doim bizga ona-zaminimizning naqadar muqaddasligini his qilish bilan birga ajdodlar tarixini o'rganish ma'suliyatli burchimiz ekanligini manbalar orqali eslatib turadi: "VIII asrda yashab o'tgan Bilga Hoqon va Kultegin yodnomalarining muallif donishmand Yo'lliq tegin Avlodlarning birinchi burchi o'z ajdodlarini unutilishidan saqlab qolishdir. O'shanda shafqatsiz va qudratli vaqt, ular ustidan hukm yurita olmaydi" deya tarixni bilish bizning ajdodlarimiz oldidagi burchimiz ekanligini o'qtirib o'tgan edi. Chindan ham, kishining o'tmishiga bo'lган munosabati uning kelgusi taqdirini belgilashda muhim ahamiyatga egadir. Bu haqda Sharq donishmandlari biri "Agar o'tmishga bo'lган munosabatingni aystsang, kelajaging qanday bo'lishini aytib beraman" degan edi [5, 166]. Ma'lumki, Markaziy Osiyo aholisi ijtimoiy hayotida ziyyaratgohlar va u bilan bog'liq urf-odatlarning o'mni alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Bu haqda ziyyaratgohlar tarixi yuzasidan nashr etilgan adabiyotlar ham alohida ta'kidlanadi. Bugungi kungacha ziyyaratgohlar, real manfaatlarni asos qilgan e'tiqodni ifoda etuvchi muqaddas joylar sifatida, uzoq tarixiy jarayonlarda ma'naviy ozuqa beruvchi omillar bo'lib, aholaning maishiy turmushida o'ziga xos vazifalarni o'tab kelgan. Shuning bilan birga mozorlar uzoq-yaqindan ziyyarat qilish uchun kelgan jamoat ahlini uchrashib, o'zaro madaniy aloqalarni tiklash nuqtasi sifatida juda muhim rol o'ynagan. Xalqimiz turmush tarzida ziyyarat so'zining zamirida umid qilish, yengil tortish, darddan xolis bo'lish, savob ishga qo'l urish tushunchasi yotadi. "Ziyoratingiz qabul bo'lsin" degan ibora esa kishilarning hayotidagi orzuuumidlarini ro'yobga chiqishi hamda istaklari ifodalangan. Ziyyarat obyekti bo'lган muqaddas joylar ko'p hollarda mozor nomi bilan atalib kelingan" [6, 8]. Shu o'rinda ziyyarat obyekti va u bilan bog'liq tushunchalarga muxtasar izoh berib o'tish joiz. Bu borada "O'zbek tili izohli lug'ati" ning II jildida "Ziyorat" so'zi 1) tashrif., muqaddas joylarga safar qilish, muborak joylarga mozor va qabristonlarga borish; 2) hurmat- ehtirom yuzasidan yoki rasmiyat yuzasidan yoshi ulug', keksa insonlar, hurmatli zotlar huzuriga tashrif buyurish, ulardan xabar olish, ularni muborakbod etish va duolarini olishni anglatadi, deyilsa, "ziyyaratgoh" so'zi esa, 1) ziyyarat qilinadigan muqaddas joy, tabarruk qadamjoy, (aziz avliyolarning maqbarasi, tug'ilgan yoki yashagan joyi; 2) insonlar ko'p tashrif buyuradigan to'planadigan mo'tabar joy demakdir", - deya izoh beriladi. O'z navbatida "ziyoratchi" tushunchasiga muqaddas, tabarruk joylarga ziyyaratga borgan yoki boruvchi kishi inson deya ta'rif beriladi [7, 148].

Hazrati payg'ambar va aziz avliyolar qabrini ziyyarat qilganda asar va taassurot voqe' bo'lishi tajriba qilingandir, tajribiyot ham tariqi ilmdir. Bas, payg'ambarlarni va avliyolarni vafotlaridan keyin ziyyarat qilish befoyda emas. Lekin ziyyarat qilingan zotga ham foyda yetishi ahli sunnat val-jamoat mazhabida, shubhasiz, bor masaladir. Faqat ziyyoratchi niyati va ixlosini to'g'ri qilishi lozim. Ularni tirik deb e'tiqod qilmaslik kerak.

1. Duoni yolg‘iz Allohga qilishi kerak. So‘raydigan narsalarini qabrdagi zotdan so‘rash aslo mumkin emas. Bu shirk bo‘ladi, shirkni esa Alloh kechirmaydi. Biror kishida bunday xatolar o‘tgan bo‘lsa, chin dildan Allohga tavba qilmog‘i lozim.

2. Ziyorat paytida tahoratli bo‘lmoq sunnatdir. Ayniqsa, hazrati Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning muborak qabrlarini va aziz-avliyolar qabrini ziyorat etishdan oldin g‘usl qilmoq odobga muvofiqdir.

3. Qisqa muddat bo‘lsa ham dunyo mashg‘ulotini tark etib, oxiratni o‘ylamoq.

4. Ikki rak‘at namoz o‘qimoq sunnatdir. Tahoratli holda (ziyoratgohga yaqin masjidda yoki namoz o‘qish joiz bo‘lgan joyda) ikki rak‘at namoz o‘qib, har bir rak‘atida “Fotiha” surasidan so‘ng bir marta “Oyatul-Kursiy”ni va uch martadan “Ixlos” surasini o‘qiydi. Salom bergach, bu namozning savobini marhumga hadya etadi.

5. Ziyoratgohda viqor bilan, sokin yurmoq. Ziyoratgohda viqor bilan, ya’ni g‘oyat sokin, vazmin, ohista yuradi. Behuda va baland ovozda so‘zlamaydi. Ehtiyoj bo‘lsa, zaruriy so‘zlarni ohista va adab bilan gapiradi.

6. Qabr ahliga salom bermoq. Qabristonga borganda avval qabriston ahliga salom beriladi. Masalan, bunday deyiladi: “Assalomu alaykum, ey bu diyorning mo‘minlari va musulmonlari! Inshoalloh, bizlar ham sizlarga kelib qo‘shilurmiz. Alloh taolodan bizlar uchun va sizlar uchun ofiyat - tinchlik-omonlik tilayman!”.

Biror qabriston yonidan o‘tganda ham salom berib o‘tish yaxshidir. Hadisi sharif: “Kimiki biror qabr yonidan o‘tayotib, qabr ahliga salom bersa, xuddi dunyoda bilganidek, mayyit uni biladi va unga alik oladi”. Bu javob qaytarish qol tili bilan emas, balki hol tili bilandir. Hazrati Ibn Umar (roziyallohu anhumo) biror qabr yonidan o‘tsalar, albatta, salom berib o‘tardilar (“Qabr ahliga salom berish tartibi” bobiga qarang).

7. Oyoq tomonidan borib, mayyitga yaqin va yuzma-yuz o‘tirmoq. Ziyorat qilganda belgili qabr yoniga oyoq tomonidan borib, avval mayyitga salom beradi, hayotlik paytida unga qanday yaqin o‘tirsa, shu darajada yaqin o‘tiradi. Mayyitning yuzi va ko‘kragi to‘g‘risiga kelib o‘tiradi. Mayyit, albatta, yuzi qiblagaga qaratib ko‘miladi. Shu bois ziyoratchi yuzini qiblagaga emas, balki, aksincha, qabrga qaratib, marhumning bosh tarafida, unga yuzma-yuz va yaqin o‘tiradi.

8. Ziyorat chog‘ida aslo qabrnii siypamaslik, aylanib tavof qilmaslik, ushlamaslik va o‘pmaslik kerak. Bu adashganlarning odatidir.

9. Qabr boshida “Yosin” surasini yoki o‘zi bilgan boshqa sura yoxud oyatlarni o‘qimoq. O‘tirgach, 1 marta “Fotiha” va 3 bor “Ixlos” surasini yoki o‘zi bilgan suralarni o‘qib, savobini marhumga bag‘ishlash kifoya. Yana 10 marta salavot va tasbih aytmoq savob. Bir marta “Fotiha” va 11 marta “Ixlos” surasini o‘qish afzal. “Ixlos”ni 10 bor o‘qish ham mumkin. “Sharhi Shir‘atul-

Islom”da aytildi: “Qabristonda surai “Yosin”ni o‘qish mustahab ekanligi mashhur hadislar bilan sobit bo‘lgandir” [8, 71-81].

Qabristonda “Oyatul-kursiy”ni o‘qish fazilati yuqorida bayon etildi. “Taborak”ni o‘qisa ham yaxshi. Bir marta “Fotiha”, “Ixlos”, “Al-falaq” va “An-nos” suralarini o‘qish ham tavsiya qilingan. Bir marta “Fotiha”, 3 marta “Ixlos va 1 marta “Al-hokumu-t-takosur” surasini o‘qisa, ulug‘ savob hosil bo‘ladi. Bular hammasi tavsiya qilingan savobli amallardir.

Qabr boshida biror fiqhiy masalani aytmoq, ayniqsa, savobliroqdir. Butun yer yuzidagi mayyitlar ruhi uning savobini talashadi.

Ammo Hazrati Imom Buxoriy, hazrati Qusom ibn Abbos (roziyallohu anhumo), Shoh Bahouddin Naqshband, Hakim Termiziy, Abu Iyso Muhammad Termiziy, Shayx So‘fi Allohyor maqbaralaridek gavjum ziyoratgohlarda boshqa ziyoratchilarga ham tezroq navbat bermoq odobdandir. Ziyoratchilar marhumga bag‘ishlaydigan narsalarini oldindan o‘qib tayyorlab kelsalar ham bo‘ladi.

10. Ziyoratga poyafzalni yechib kirish sunnatdir. Bu haqda hadisi shariflar bor.

11. Qabrni bosmaslik lozim. Qabr usti mayyitning haqqidir. Qabrni bosish mayyitning qornini bosish kabitidir. Qabr ustidan yoki qabriston ichidan o‘tish zarur bo‘lib qolsa, tasbih (“Subhonalloh”, “Subhonallohi va bihamdihi”, “Subhonallohi val-hamdulillohi va lo iloha illallohu vallohu akbar” kabi tasbihlarni), tahlil (“Lo iloha illalloh”), takbir, duo va istig‘for aytib o‘tsa bo‘ladi.

Kimki qabristondan: “Allahu akbar, Allahu akbar, la ilaha illallohu vallohu akbar. Allahu akbaru va lillohil-hamd” takbirini aytib o‘tsa, qabrda yotgan kishi: “Koshki shu odam qabrim yonidan yana bir marta o‘tsa edi!” deb orzu qilib qoladi.

12. Mo‘minlarning yaxshi sifatlarini eslash sunnatdir.

13. Ziyoratdan behad sokin, vazmin holatda qaytish lozim [9].

Ushbu o‘rinda ziyoratgoh va qadamjo tushunchalarini bir-biridan farqini ko‘rsatish joiz deb hisoblayman. Ziyoratgoh islam olamida katta iz qoldirgan insonning qabri joylashgan maskan bo‘lsa, qadamjo esa aynan shunday sahabalar, avliyolarning qadamlari yetgan muqaddas joylardir. Bunday muqaddas joylarni ziyorat qilayotgan ziyoratchilar albatta ziyorat odobiga amal qilishlari, buning uchun ularga bu haqida tushunchalar berilishi kerak bo‘ladi.

Endi o‘sib kelayotgan yoshlarda ekologik, huquqiy va axloqiy ongning shakllantirish yuqoridagi masalalarining yechimi bo‘la oladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Эшонқулов З. Зиёрат одоблари / масъул муҳаррир: Мухаммад Бобур Йўлдош. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2015.
2. Муҳаммаджонов А. Қадимги Тошкент. – Тошкент, 1988.

3. Абдунабиев А. Тарих – мунаввар кўзгу. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамият нашриёти, 2007.
4. Махмуд Саттор. Ўзбек удумлари. – Тошкент: Фан, 1993.
5. Абдулахатов Н., Аброров С., Тошкулов. Сармазор зиёратгохи. – Тошкент: Баёз, 2014.
6. Ҳайдарова З., Абдулаҳатов Н., Азимов О., Биби Убайда зиёратгохи. – Фарғона: Фарғона, 2009.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
8. Ҳайитова Ф.М. “Зиёратгоҳ ва қадамжоларда ўтказиладиган маросимлар: анъанавийлик ва трансформация” // Ўзбекистон: тил ва маданият 3, 2019.
9. <https://www.vaqf.uz/uz/pages/viyew/morality>